

PIRIMQUL QODIROVNING “AVLODLAR DAVONI” ROMANIDA ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN QATLAM SO‘ZLARINING QO‘LLANILISHI

Nazarov Zokir Muxammad o‘g‘li

Termiz davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi.

Telefon: +998937616566. Email: znazarov@tersu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12510632>

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligidagi kam o‘rganilgan muammolardan biri – Pirimqul Qodirov “Avlodlar davoni” romanida o‘zlashgan qatlam so‘zlarning qo‘llanilishi, uning ma‘nosi, tarkibi kabi jihatlarini yoritishni maqsad qildik.

Kalit so‘zlar: Leksika, o‘zbek tili, arab tili, rasmiy idoraviy uslub tili, arab yozma adabiy tili, ma‘jun, tarh.

THE USE OF WORDS BORROWED FROM THE ARABIC LANGUAGE IN PIRIMKUL KADYROV'S NOVEL "AVLODLAR DAVANI"

Abstract. In this article, we aim to shed light on one of the understudied problems in modern Uzbek linguistics - the use of words, their meaning, composition, etc.

Key words: Lexicon, Uzbek language, Arabic language, formal departmental style language, Arabic written literary language, Ma‘jun, translation.

УПОТРЕБЛЕНИЕ СЛОВ, ЗАИМСТВОВАННЫХ ИЗ АРАБСКОГО ЯЗЫКА, В РОМАНЕ ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА «АВЛОДЛАР ДАВАНИ»

Аннотация. В данной статье мы стремимся пролить свет на одну из малоизученных проблем современного узбекского языкознания - употребление слов, их значение и структуру, которые используются в романе Пиримкула Кадырова «Авлодлар Давани».

Ключевые слова: Лексикон, узбекский язык, арабский язык, формально-ведомственный стиль языка, арабская письменно-литературная речь, маджун, перевод.

O‘zbek tili o‘tmishda bir qator qardosh bo‘lmagan boshqa tizimdagi tillar bilan ham aloqada bo‘lgan. Bunday tillar fors-tojik va arab tillaridir. O‘rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida o‘zbek-arab tillari aloqasi yuzaga keldi. Bu davrda arab tili davlat va din tili, fan va rasmiy yozishmalar tili sifatida keng tarqaldi. O‘zbek tili bu davrda, bir tomondan, bosqinchilarning og‘zaki so‘zlashuv tili bilan, ikkinchi tomondan, arab yozma adabiy tili bilan to‘qnashdi. Arab tili mahalliy aholiga davlat va fan tili, ayniqsa din tili sifatida majburan o‘qitildi va singdiriladi. Natijada mahalliy aholi vakillari o‘z ona tili bilan bir qatorda arab tilida ham yoza va gapira oladigan bo‘ldi. O‘rta osiyolik mashhur olimlar Xorazmiy, Beruniy, shuningdek, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy o‘z ilmiy asarlarini arab tilida yozganlar. Natijada arab tili IX-X asrlarda mahalliy aholi tillariga din-islom tili, bosqinchi harbiylar tili sifatida mahalliy adabiy tillarga fan, madaniyat, davlat tili sifatida kuchli ta‘sir o‘tkazdi. Natijada arab tilidan o‘zbek adabiy tiliga, qisman o‘zbek xalq shevalariga arabcha so‘zlar kirib kela boshlagan. Arabcha so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelishi ayniqsa VII-VIII asrlarda ko‘proq yuz bergan. XIV-XV asr eski o‘zbek tilida arab tili leksikasi sezilarli qatlamni

tashkil qilgan. Shuning uchun Navoiy asarlari tilida forscha-tojikcha soʻzlar bilan bir qatorda arabcha soʻzlar ham uchraydi.

Shunday qilib, arab tili bilan oʻzbek tili bevosita toʻqnashdi. Shunga koʻra, oʻzbek-arab ikkitilliligi kontaktli hodisa hisoblanadi. Bu jihatdan oʻzbek-arab tillarining oʻzaro aloqasi va taʼsiri boshqa turkiy tillardagi mana shunday taʼsirdan farqlanadi. Oʻzbek tiliga arab tili faqat din-islom tili sifatida emas, balki fan tili, rasmiy idoraviy uslub tili, badiiy adabiyot tili sifatida ham taʼsir etdi. Ammo arab tilining baʼzi tillarga taʼsiri, asosan, din tili sifatida yuz berdi. Oʻzbek tiliga arab tilidan soʻz olish, asosan, oʻzbek-arab bilingvizmi davrida kuchli boʻldi. Keyingi davrlarda oʻzbek tiliga yangi soʻzlar sezilarli darajada qabul qilinmagan, keyinchalik esa oʻzbek tiliga kirgan arabcha elementlardan bir qismining eskirishi va oʻzbek tilidan chiqish jarayoni yuz berdi. Alisher Navoiy tilida ishlatilgan koʻpgina arabcha soʻz va soʻz shakllari XIX asr oʻzbek tilida, shuningdek, hozirgi oʻzbek adabiy tilida uchramaydi. Arab tilining oʻzidan bevosita soʻz olish XI asrdayoq deyarli toʻxtagan edi. Ammo turli davrlarda arabcha yozma manbalarda, shuningdek, eski oʻzbek tili yozma yodgorliklarida saqlangan arabcha soʻz guruhlari u yoki bu davrlarda faollashib turdi. Masalan, XX asr boshlarida va 20-yillar oʻzbek tilida ilmiy atamalar sifatida faollashgan arabcha soʻzlar ana shu keyingi manbalardan olingan edi.

Chin maʼnoda oʻzlashgan soʻzlar boshqa tilning fonetik va grammatik qonuniyatlari taʼsiriga beriladi, oʻzlashmagan chet soʻzlar bunday taʼsirga berilmaydi. Masalaga mazkur nuqtayi nazar asosida yondashilganda, oʻzbek tili leksikasidagi arabcha soʻzlarning barchasini oʻzlashgan desak, xato boʻlmaydi. Chunki arab oʻzlashmalarining deyarli barchasi oʻzbek adabiy tilining fonetik va grammatik qonuniyatlari taʼsiriga beriladi, ayniqsa, ular turlanish sistemasida oʻzbek tilining oʻz soʻzlari bilan teng maqomda ishtirok etadi, zero ular chin maʼnoda oʻzlashgan lugʻaviy birliklardir.

Biz Pirimqul Qodirovning “Avlodlar davoni” romanida oʻzlashgan qatlam soʻzlarning qoʻllanilishi tahlil qilamiz.

Dahriy (arabcha; asriy; materialist, xudosiz, ateist) – dunyo hodisalarini tabiat qonunlaridan deb biluvchi, oxiratga ishonmaydigan kishi.

Sadr (arabcha-. yuqori oʻrin, oliy mansab; ibtido; birinchi misra) – vaqf va din ishlari bilan shugʻullanuvchi amaldor.

Javzo (arabcha; katta) – oʻn ikki burjning biri, Saraton va Savr burjlari oʻrtasida joylashgan.

Shamsiya yil hisobida uchinchi oyning arabcha nomi (22-may-21-iyun kunlariga toʻgʻri keladi).

Mirrix (arabcha) – Mars sayyorasi. Qadimgi munajjimlar uni urush va xunrezliklar sababchisi deb hisoblaganlar.

Majusiy (arabcha) – otashparast. Otashparastlik diniga mansub kishi; otashparast.

Botin (arabcha) – ich, ichki; yashirin, maxfiy. Chuqur, qalb, koʻngil.

Tavof (arabcha) – (biror narsaning) atrofida yurish, aylanish. 1) haj va umra marosimlari tarkibiga kiruvchi, Kaʼba atrofida aylanishdan iborat jarayon (umra qiluvchilar bir marta, hajga kelganlar 3 marta tavof amalini ado etadilar); 2) muqaddas, tabarruk deb hisoblangan kimsa, narsa, joy atrofni ziyorat qilmoq.

Samur (arabcha) – suvsar. Samur poʻstin — suvsar terisidan tikilgan poʻstin.

Xafaqon (arabcha) – yurak urishi, dukullashi. Mungli, g'amgin, xafahol Xafaqon bo'lmoq.
1) diqqat bo'lmoq, siqilmoq; xunob bo'lmoq.

Qabo (arabcha) – ustki kiyim, chakmon. Uzun va keng ustki kiyim.

Afyun (arabcha) – qora dori. 1) ko'knorning dumbul boshog'idan olib quritilgan shira (qora dori, taryak ko'rinishida, kayf qilish uchun, tibbiyotda esa narkotik modda sifatida ishlatiladi); 2) (ko'chma) kishi ongini zaharlaydigan narsaga nisbat beriladi.

Mashvarat (arabcha) – Kengash, ko'rsatma; yo'l-yo'riq; maslahatlashish.

Rutubat (arabcha) – namlik, zaxlik. Biror narsadagi namlik, zaxlik.

Toqi (arabcha: gumbaz, qubba, arka) – oq tol g'olaridan bir tomoni yassi, ikkinchi tomoni do'ng qilib tayyorlanadigan, imoratning to'sinlari ustiga zich qilib ko'ndalang teriladigan katta tayoqcha yoki hassa; 2) bekor yotmoq (ko'chma ma'noda)', 3) qorovullarning shaqildog'i; 4) ko'ylakning yelka qismiga ichidan qo'yilgan astar (bu yerda shu ma'noda).

Xiroj (arabcha) – chiqarish; yer solig'i. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda o'rta asrlar va yangi davrda davlat tomonidan undirilgan yer solig'i (7-asrda arablar tomonidan joriy qilingan).

Jizya, juzya (arabcha) – jon solig'i; yer solig'i. O'rta Osiyo xonliklarida musulmon bo'lmagan fuqarolarning, asosan yerli yahudiylarning mulkidan m ma'lum ulush miqdorida olingan soliq.

Shafolat (arabcha) – tarafini olish, (birov uchun) vositachilik. Martabasi va hurmati yuqori kishi tomonidan o'zidan past kishilarni, beva-bechoralarni qo'llab-quvvatlash, ularga nisbatan homiylik, yaxshilik.

Aqrab (arabcha; katta) – o'n ikki burjning biri. Mezon va Qavs burjlari o'rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida sakkizinchi oyning arabcha nomi (22-oktyabr – 21-noyabr kunlariga to'g'ri keladi).

Dalv — (arabcha; chelak; mesh) – o'n ikki burjning bin, Jadiy va Hut burjlari o'rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida o'n birinchi oyning arabcha nomi (22-yanvar – 22-fevral davriga to'g'ri keladi).

Ma'jun (arabcha) – dorivor aralashma; o'simliklardan olinadigan, tarkibida giyohvand modda bo'lgan aralashma. Turli ziravorlarga afyun qo'shib tayyorlangan va quvvat, darmon beradigan dori.

Nuqs (arabcha) – yetishmovchilik; kamayish; nuqson, kamchilik.

Saraton (arabcha) – qisqichbaqa. O'n ikki burjning biri, Javzo va Asad burjlari o'rtasida joylashgan. Saraton o'rta kengliklarda kuz, qish va erta bahorda ko'rinadi. Shamsiya yil hisobida to'rtinchi oyning arabcha nomi (22-iyun – 21-iyul davriga to'g'ri keladi).

Istifoda (arabcha) – foydalanish; foyda olish; ishlatish. Istifoda qilmoq –foydalanmoq, qolsam oq, ishlatmoq.

Savr (arabcha buqa, ho'kiz) – o'n ikki burjning biri. Hamal va javzo burjlari o'rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida ikkinchi oyning arabcha nomi (22-aprel-21-may davriga to'g'ri keladi). Savrning o'rtasi – 7-8-mayga to'g'ri keladi.

Qavs (arabcha: o'q-yoy burji) – o'n ikki burjning biri, Aqrab va Jad(i)y burjlari o'rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida to'qqizinchi oyning arabcha nomi (22-noyabr- 21-dekabr orasidagi davrga to'g'ri keladi).

Yo bo'lsa muyassar kishiga ilm ila ho'l.

Yo topsa kishi saltanat avjida kamol.

Yo oshiftoe bo'lsa ko'rub husn-u jam ol

Yo bo'lsa tamom o'zligidin forig'bol.

Munshiy (arabcha) – asoschi, yaratuvchi; qumvchi; muallif, tuzuvchi, yozuvchi. Saroyda yozuv ishlarini olib boradigan kotib.

Tavr (arabcha) – bosqich; holat; surat, hol, tarz, yo'sin; odat, qiliq, yurish-turish.

Shar'iy (arabcha: shariatga (diniy qoidaga) tegishli, mansub) — shariat aqidalan, qonun-qoidalariga mos keladigan; shariatga ko'ra qonuniy.

Iona (arabcha) – yordam, ko'mak. Moddiy yordam, nafaqa.

Murid (arabcha) – izdosh, ergashuvchi, shogird; so'fiylar shogirdi din. Piryoki eshon (murshid) ga qo'l berib, so'fiylik yo'liga kirgan shaxs.

Tujjor (arabcha) – «toj in ko'p savdogarlar, tijoratchilar.

Fatvo (arabcha) – muftining hukmi, qarori; tushuntirish, izoh. Shariat, din qonun-qoidalari asosida ruhoniylar (mufti, shayxulislom, qozi) tomonidan biror diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masala yuzasidan chiqariladigan hukm, qaror, izoh yoki biror ishning shariat nuqtai nazaridan amalga oshirish mumkinligi haqidagi ko'rsatma, buyruq.

Dahriy (arabcha) – asriy; materialist, xudosiz, ateist. 1) Dunyo hodisalarini tabiat qonunlaridan deb biluvchi, oxiratga ishonuvchi kishi; materialist.

Lohas (arabcha) – harsillovchi, halloslovchi, nafasi qaytuvchi; bo'shshagan, lanj.

Azroil (arabcha) – Islom dinida to'rt bosh farishtadan bin, jon oluvchi farishta.

«Vaqoi'» (arabcha: voqealar, hodisalar) – «Boburnoma»ning muallif tomonidan nomlanishi. «Boburnoma» – jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhimi va noyob yodgorlik; o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/19-1530). «Boburiya», «Voqeoti Bobuo», «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Tabaqoti Boburiy», «Tavorixi Boburiy» kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburing o'zi esa «Vaqoe» va «Tarix» degan nomlari ishlatgan.

Aqiq (arabcha) – qizil rangli qimmatbaho tosh. 1) Turli rangli qimmatbaho tosh; haqiq (zeb-ziynat buyumlariga ishlatiladi).

Rido (arabcha) – xalat, kiyim. Shayxlar, umuman ruhoniylar yelkasiga yopinadigan choyshabsimon yopinchiq, libos; darvishlarning ustki kiyimi.

Mut'a (arabcha) – biror ayolni ma'lum muddatga va kelishilgan mablag' evaziga muvaqqat nikohga olish. Keyinchalik buning makruhligiga fatvo berilgan.

Irsiyat (arabcha) – vorisiylik, merosiylik, irsiylik. Tirik organizmlarning jismoniy va ruhiy xususiyatlari saqlash va nasldan naslga o'tkazish, o'ziga o'xshash nasllarni bunyod etish qobiliyati, shunday xususiyat.

Tarh (arabcha) – olish, olib tashlash; ayirish. 1) o'ndan uchni tarh qilsa, yetti qoladi; 2) qurilish, imorat, bog'ning bichimi, loyihasi; 3) chizma lavha; loyiha, reja.

Nauzanbilloh (arabcha) – Ollah asrasin.

Vodarig' (arabcha) – e afsus, attang. Afsus-pushaymonni, oh-vohni ifodalaydi.

Taftish (arabcha) – izlash, qidirish; tekshirish, nazorat qilish. Bo'lib o'tgan ish, hodisa yuzasidan yoki haqiqiy ahvolni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tekshiruv, tergov, so'roq.

G'azot (arabcha) – din uchun urush. Din yo'lida qilingan urush, jang; musulmonlarning muqaddas urushi.

Jihad (arabcha) – harakat qilish; kurash, olishuv. Musulmonlarning Islom dinining tarqalishi yo'lidagi g'ovlarni bartaraf etish, uni har taraflama muhofaza qilish yo'lida g'ayridinlarga qarshi muqaddas urushi.

Bid'at (arabcha) – yangilik, yangilik kiritish; dinga qarshi xatti-harakat) — 1) diniy aqidalarga kiritilgan o'rinsiz isloh, dinga xilof yangilik; dinda keyinchalik paydo bo'lgan narsa; 2) eskidan qolgan urf-odat, rasm-rusm.

Xurofot (arabcha) – bid'at, taassub, irim-chirimlar. Diniy e'tiqod, urf-odatlar, irimlari soxtalashtiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisa.

Makruh (arabcha) – yoqimsiz; rad etilgan, iste'mol etilishi lozim ko'rilmagan) Musulmonlar nazarida, *porok*, harom (narsa).

Basir (arabcha) – 1) o'tk.r ko'zli; o'ta; 2) ko'rish qobiliyati yo'q; ko'r, so'qir; 3) (ko'chma) narsa, voqeaning mohiyatini tushuna olmaydigan; ongsiz; bilimsiz; johil.

Musohaba (arabcha) – birga kuzatib, hamsuhbat bo'lib borish; jo'r bo'lish, suhbatlashish.

Muroqaba (arabcha) – kuzatish; mushohada qilish; nazorat qilish, tekshirish. O'zi, o'z ichki dunyosi haqida fikr yuritish, mushohada qilish.

Mujtahid (arabcha) – intiluvchi, g'ayrat qiluvchi. O'rta asrlarda islomda ijtehad huquqiga ega bo'lgan, ya'ni mustaqil ravishda diniy aqidaviy va huquqiy masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs. Sunniylarda diniy huquq mazhablarining asoschilari, shialarda yuqori martabali ruhoniylar va diniy huquq-shunoslar mujtahidlar deb ataladi.

Malik ush-shuaro (arabcha) – shoirlar podshohi. O'tmishda Sharqda eng mahoratli, o'tkir shoirlarga berilgan unvon va saroyda shunday shoirga berilgan amal.

Mushoira (arabcha) – she'riy ijoddagi tortishuv; she'r aytishish). 1 She'riyatning bir janri; ikki yoki undan ortiq shoirning bir mavzuda bir-birining fikr va tuyg'ularini rivojlantiradigan she'r aytishish musobaqasi.

Qamariy (arabcha) – oyga oid, oyga taalluqli. Oy kalendarining eski nomi; musulmon olamining taqvim. Musulmon olamida oyning ikkita bir xil fazasi: Oy tug'ilgan kundan kelgusi Oy tug'ilgan kungacha bo'lgan vaqt asos qilib olingan yil hisobi. Qamariya hisobidagi yil, shamsiya hisobidagidan deyarli 11 sutka qisqa. Qamariy yilda 12 oy bo'lib, Muharram, Safar, Rabiulavval, Rabiulsoniy, Jumodulavval, Jumoduloxir, Rajab, Shabon, Ramazon, Shavvol, Zulqad'a va Zulhijja nomlari bilan ataladi.

Muarrif (arabcha) – tarix yozuvchi, tarixchi.

Sahbof (arabcha) – gazeta sotuvchi; muqovachi, muqova yasovchi. Kitoblarni muqovalovchi usta; muqovasoz.

Demak, yuqorida keltirilgan misollardan ma'lumki, o'zlashgan qatlam so'zlar o'zbek tili leksikasining boyish manbasi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o'zbek tili. (leksikologiya). O'quv qo'llanma / – T.: "Firdavs-shoh nashriyoti", 2021. –380 b.

2. P. Qodirov. Avlodlar dovoni / roman / «Abadiy barhayot asarlar» turkumi — T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2020. — 640 b.
3. Davidov Y. J. KO 'P MA'NOLILIK HODISASINING YUZAGA KELISH YO'LLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 500-503.
4. Nazarov Z. PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA O'ZLASHGAN QATLAM SO 'ZLARNING QO 'LLANILISHI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 840-844.
5. Davidov Y. ASPECTS OF DISAMBIGUATION DIFFERENT FROM COGNATE WORDS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 906-909.